

## ASOSIY FONDlardan FOYDALANISH VA MEHNATNI FONDlar BILAN QUROLLANISH KO'RSATKICHLARI

*Toshkent kimyo texnologiya instituti  
Yangiyer filiali Iqtisodiyot yo'nalishi  
2-kurs talabasi **Ismoilova Intizor***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada asosiy fondlardan samarali foydalanish, mehnat bozorida fondlardan qanday samarali foydalanish, asosiy va aylanma fondlarning sifat ta'rifi, asosiy vositalar yangilanish darajasining tahlili va asosiy fondlar eskirishi haqida to'liq ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** aktivlar, melioratsiya, irrigatsion, konservatsiya, rekonstruksiya, depolar, presslar, konveyerlar, amortizatsiya

**Kirish.** Asosiy fondlar - ishlab chiqarilgan aktivlar bo'lib, ular uzoq vaqt davomida (bir yildan kam emas) tovarlar ishlab chiqarish yoki bozor va nobozor xizmatlar ko'rsatish uchun xizmat qiladilar. 1996-yildan boshlab asosiy fondlarni natural formasi va bajarayotgan funksiyalariga qarab quyidagicha tasniflanadi: binolar (yasholmaydigan), yashaydigan binolar, inshootlar, mashina va uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo'jalik ashyolari, ishchi mollar, mahsuldor mollar, ko'p yillik o'simliklar, asosiy fondlarning boshqa turlari. Asosiy fondlarni bunday tasniflash asoslangan amortizatsiya me'yorlarini belgilashda, tarkibini va ulardan oqilona foydalanishni o'rganishda qo'llaniladi. Asosiy fondlar tarkibiga yerlarni yaxshilash (melioratsiya, quritish, irrigatsion va boshqa ishlar) uchun qilingan kapital xarajatlar va yerga egalik qilish huquqini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (advokatlar, ko'chmas mulk bilan shug'ullanuvchi agentlar va boshqa vositalar xizmatiga to'lovlar, to'langan soliqlar va yig'imlar va boshqa tashkiliy xarajatlar) bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ham kiradi.

Asosiy fondlar tarkibini o'rganish maqsadida ularni quyidagi belgilari bo'yicha guruhlarga ajratiladi:

- iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha;
- tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (shu jumladan, sanoat va qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k. tarmoqlar) asosiy fondlari, xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar (shu jumladan, transport, aloqa, savdo) asosiy fondlari;
- mulk formasi bo'yicha;
- davlat mulkida bo'lgan, xususiy mulkda bo'lgan asosiy fondlar;
- ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi darajasiga qarab;

- bevosita mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida qatnashuvchi asosiy fondlar va harakatda bo'lmagan asosiy fondlar, shu jumladan, zaxirada, konservatsiyada, ta'mirlashda, rekonstruksiya bo'lganlar;

- kimga qarashli ekanligiga qarab;
- xususiy va ijaraga qo'yilgan asosiy fondlar;
- hududlar bo'yicha joylashishiga qarab;
- tumanlar, shaharlar, viloyatlar va respublika asosiy fondlari.

Mamlakatning qudrati, iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishi, jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish shu mamlakat resurslari, ayniqsa, asosiy va aylanma fondlarining miqdori va sifati bilan belgilanadi. Mamlakat va uning sanoati, boshqa tarmoqlari, korxonalari qanchalik ko'p resurslarga ega bo'lsa, u shunchalik qudratli va rivojlangan bo'ladi. Agar u ana shu resurslardan to'la – to'kis, oqilona foydalana olsa, albatta, buyuk davlatga aylanadi. Sanoat ishlab chiqarishi faoliyatida asosiy fondlarning alohida o'rni bor. Chunki ularsiz birorta ishni bajarish, xizmat ko'rsatish va mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.


Iqtisodiy maqsadlarga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlariga quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarish binolari(sehlarning ishlab chiqarish korpuslari, depolar, garajlar, omborxonalar, ishlab chiqarish xonalari va laboratoriyalar);
- Inshootlar(nasos stansiyalar, tunnellar, ko'priklar va h.k.);
- Har xil energiya, suyuq va gazsimon moddalar uzatadigan uzatuvchi uskunalar;
- Mashinalar va asbob-uskunalar (energiyani, suyuq va gazsimon moddalarni ishlash va almashtirishga mo'ljallangan kuch mashinalari, generatorlar va gazogeneratorlar, elektrogeneratorlar, bug' qozonlari, havo kompressorlari);
- Ishchi moshinalar va uskunalar (dastgohlar, presslar, konveyerlar va boshqa turli yordamchi asbob-uskunalar);
- O'lchov va tartibga soluvchi asboblari (laboratoriya asboblari, hisoblash mashinalari, kompyuterlar);
- Transport vositalari;
- Foydalanish muddati bir yildan kam bo'lmagan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asbob va ishlab chiqarish inventarlari.

1-jadval<sup>1</sup>

## Asosiy fondlar (vositalar)



Asosiy fondlar iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, korxona yoki tashkilotning uzoq muddatli ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan moddiy resurslarini ifodalaydi. Asosiy fondlar – bu korxona yoki tashkilotning ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat (odatda bir yildan ortiq) ishlatiladigan va o'z shaklini saqlab qoladigan moddiy aktivlardir. Ular ishlab chiqarish vositalari sifatida xizmat qiladi va o'z qiymatini asta-sekin mahsulotga o'tkazadi (amortizatsiya orqali).

- Uzoq muddatli foydalanish: Asosiy fondlar bir necha ishlab chiqarish siklida ishlatiladi va o'z qiymatini bosqichma-bosqich yo'qotadi.

- Kapital sifatidagi xususiyati: Ular korxonaning asosiy kapitalini tashkil qiladi va iqtisodiy faoliyatning moddiy bazasini ta'minlaydi.

- Amortizatsiya: Asosiy fondlarning qiymati ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga asta-sekin o'tadi, bu esa ularning yangilanishi va qayta tiklanishi uchun mablag' to'plash imkonini beradi.

- Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri: Asosiy fondlarning sifati va texnologik darajasi korxonaning raqobatbardoshligi va mahsuldorligiga bevosita ta'sir qiladi.

Mehnat vositalari – inson mehnat buyumlariga ta'sir qiladigan va ularni o'zgartiradigan moddiy vositalar majmui. Ishlab chiqarish jarayonida inson moddiy

<sup>1</sup><https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/iqtisodiyot/sanoat-ishlab-chiqarishning-asosiy-fondlari-va-ishlab-chiqarish-quvvatlari>

boylik yaratish maqsadida ta'sir qiladigan barcha narsalar mehnat buyumlaridir. Mehnat vositalari – asosiy fondlarni, mehnat buyumlari esa aylanma fondlarni tashkil qiladi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar amortizatsiya ajratmalari deb ataladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va hodimlar soni bilan birgalikda korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi.

2-jadval<sup>2</sup>**Asosiy va aylanma fondlarning sifat ta'rifi**

| Farqlovchi belgilar                                 | Asosiy fondlar                                                                                        | Aylanma fondlar                                                                                                     |
|-----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashish turi      | Mehnat vositasi sifatida                                                                              | Mehnat buyumlari sifatida                                                                                           |
| 2. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashishxususiyati | Ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta qatnashadi                                                     | Ishlab chiqarishning har bir yangi siklida to'la iste'mol qilinadi(bir marta qatnashadi)                            |
| 3. Tayyor mahsulotga qiymatini o'tkazish usuli      | Tayyor mahsulotga butun xizmat muddati davomida yemirilgan qiymatini ayrim qismlarga bo'lib o'tkazadi | Tayyor mahsulotga o'z qiymatini to'la va bir yo'la o'tkazadi                                                        |
| 4. Natural shaklining o'zgarishi                    | Xizmat muddatining oxirigacha o'z natural shaklini saqlab qoladi                                      | Natural shaklini saqlab qolmaydi. O'zining jismoniy shaklini, ko'pincha moddiy tarkibini ham bir yo'la o'zgartiradi |

“Amortizatsiya” atamasi umuman olganda asosiy vositalarning eskirishini qoplanishini, tiklanishini bildiradi. Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning eskirishini pul mablag'larini jamg'arish orqali qoplash amortizatsiya deyiladi. Binobarin, amortizatsiya fondi – eskirishni qoplash uchun mo'ljallangan pul fondidir. U amortizatsiyaga ajratilgan mablag'lar hisobidan tarkib topadi. Amortizatsiya – mehnat vositalarining eskirishini qisman qoplash uchun mablag' ajratishdir. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalar yemiriladi, eskiradi, asta-sekinlik bilan o'zining texnik xususiyatlarini, iste'mol qiymatini yo'qotib boradi, ularni qiymati esa ishlab chiqarilayotgan tovarga o'tkazilib boriladi. Mashina, uskuna, asboblari yeyiladi, arzonlashadi. Asosiy vositalar qiymatining eskirish summasi amortizatsiya fondiga borib tushadi. Amortizatsiya fondidan vositalarning ma'lum qismini kapital ta'mirlash davomida ularni qisman tiklash maqsadida foydalaniladi. Bu sharoitda yo'qotilgan

<sup>2</sup><https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/iqtisodiyot/sanoat-ishlab-chiqarishning-asosiy-fondlari-va-ishlab-chiqarish-quvvatlari>

qiymatni qisman qoplash sodir bo'ladi. Asosiy vositalarning xizmat muddati tugaganidan keyin ular butunlay eskiradi, iste'mol qiymatini yo'qatadi, jamg'arilgan amortizatsiya fondi yangi mehnat vositalarini sotib olish imkonini beradi. Asosiy vositalarning eskirishi qanchalik ko'p bo'lsa, ularning qoldiq qiymati shunchalik kam bo'ladi va aksincha, asosiy vositalarning eskirish summasiga qarab korxonadagi mavjud asosiy vositalarning yangi yoki eskiligi baho berish mumkin.

Asosiy vositalar o'z balans qiymatini ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga to'liq o'tkazmasdan hisobdan chiqariladigan bo'lsa, farqi korxona tasarrufida qolgan foyda hisobidan qoplanadi. Amortizatsiya fondining ajratmalari mahsulot sotishdan tushgan pul mablag'i tarkibida xo'jalikning hisob-kitob raqamiga tushadi. Bu mablag'lar faqat kapital xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash uchun sarflanadi. To'la tiklash uchun ajratiladigan asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi:

- Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;
- Asosiy vositalarning eskirish darajasi;
- Yaroqlilik darajasi asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali;
- Eskirish darajasi asosiy vositalarning eskirish qiymatini ularning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga qarab, ularning texnikasiga baho beriladi va ularni tartiblash bo'yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

### 3-jadval<sup>3</sup>

#### Asosiy vositalar yangilanish darajasining tahlili

| Ko'rsatkichlar                            | Foydalanishga topshirilgan asosiy vositalar | Jami vositalarning yil qiymati | Asosiy vositalarning yangilanish darajasi |
|-------------------------------------------|---------------------------------------------|--------------------------------|-------------------------------------------|
| O'tkan yil:                               |                                             |                                |                                           |
| Jami asosiy vositalar                     | 4620                                        | 69482                          | 6.6                                       |
| Sanoat asosiy ishlab chiqarish vositalari | 3156                                        | 67937                          | 4.6                                       |
| Hisobot yili:                             |                                             |                                |                                           |
| Jami asosiy vositalar                     | 5440                                        | 71049                          | 7.6                                       |
| Sanoat asosiy ishlab chiqarish vositalari | 4869                                        | 69991                          | 6.9                                       |

Korxonada asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi hisobot yilining boshida 44.3% ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil oxiriga kelib, 37.3% ni ko'rsatgan. Ya'ni 7% ga pasaygan. Bu ko'rsatkichning past bo'lishiga uning tarkibida eskirgan

<sup>3</sup> <https://ilmiybaza.uz/document/korxonaning-asosiy-fondlari/>

asosiy vositalar mavjudligidan dalolat beradi. Korxonada asosiy vositalarning qoldiq qiymati hisobot yilining boshida 30 ming so'mni, yil oxirida bu ko'rsatkich 26 mln. 501 so'mni tashkil qilgan.

Asosiy fondlarning eskirish va amortizatsiyasi.

- Amortizatsiya harajatlari korxonaga jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida asosiy fondlarning moddiy va ma'naviy eskirishi va ularga ajratilayotgan amortizatsiya harajatlarini proporsional bo'lishi muhimligini ko'rsatmoqda.

- "Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi.

**Xulosa.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy fondlardan oqilona va samarali foydalanish har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy fondlar - bu uzoq muddat foydalaniladigan moddiy resurslar bo'lib, ularning texnik holati, eskirish darajasi va yangilanish sur'ati korxona ishlab chiqarish quvvatining poydevorini tashkil etadi.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholanadi, xususan:

- Fond qaytimi - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining asosiy fondlarga nisbati;
- Fond sig'imi - mahsulot birligiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar qiymati;
- Fondlarning nisbiy tejami - asosiy vositalarni tejash orqali mahsulot hajmini oshirish imkoniyati;

- Amortizatsiya darajasi va qoldiq qiymat - fondlarning eskirish holati va yangilanish ehtiyojini aks ettiradi.

Bundan tashqari, mehnatni fondlar bilan qurollanish darajasi ham muhim rol o'ynaydi. Bu ko'rsatkich ishchilarning texnik jihozlanganlik darajasini ifodalaydi va quyidagi tarzda baholanadi:

- Mehnatni fondlar bilan qurollanish koeffitsienti - ishlab chiqarish ishchisiga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning qiymati (so'm/ishchi).

- Yuqori darajadagi qurollanish mehnat unumdorligini oshiradi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmini ko'paytiradi.

- Qurollanishning past darajasi esa mehnat samaradorligini pasaytiradi, texnologik jarayonlarning sekinlashishiga va tannarxning oshishiga olib keladi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/iqtisodiyot/sanoat-ishlab-chiqarishning-asosiy-fondlari-va-ishlab-chiqarish-quvvatlari>
2. <https://ilmiybaza.uz/document/korxonaning-asosiy-fondlari/>
3. <https://docx.uz/document/korxonalarda-ishchi-kuchidan-foydalanish-samaradorligiga-asosiy-fondlarning-ta-siri-9d7bc9a5?lang=uz>
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/iqtisodiyot/sanoat-ishlab-chiqarishning-asosiy-fondlari-va-ishlab-chiqarish-quvvatlari>
5. [https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/24/NamDU-ARM-7839-Iqtisodiy\\_statistika.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/24/NamDU-ARM-7839-Iqtisodiy_statistika.pdf)